

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA XALQARO TAJRIBA: DANIYA VA SINGAPUR MODELLARI ASOSIDA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH

MAVLONOV AVAZBEK NAZIRBEKOVICH

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

“XALQARO HUQUQ” FAKULTETI TALABASI

avazbek005m@gmail.com

UZAKBAEVA NAUBAXAR BAXADIR QIZI

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI O‘QITUVCHISI

naubaharuzakbaeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20756398>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Daniya va Singapur kabi rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi olib borayotgan amaliyoti va erishgan natijalari atroflicha tahlil qilinib, ularning ijobiy tajribasini O‘zbekiston qonunchiligiga tatbiq etish imkoniyatlari yoritib berilgan. E’tiborli jihati shundaki, ushbu davlatlar korrupsiyani jilovlash orqali boshqa barcha sohalarda – iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jahada yuksaklikka erishganlar. Bundan xulosa shuki, korrupsiya — rivojlanishning asosiy to’sig’i, faqatgina uni yengib katta islohotlarga yo’l ochish mumkin.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, xalqaro tashkilotlar, implementatsiya, nodavlat tashkilotlar, pora, halollik vaksinasi, ochiqlik, shaffofli

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ: СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА НА ОСНОВЕ МОДЕЛЕЙ ДАНИИ И СИНГАПУРА

MAVLONOV AVAZBEK NAZIRBEKOVICH

СТУДЕНТ ФАКУЛЬТЕТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА УНИВЕРСИТЕТА МИРОВОЙ

ЭКОНОМИКИ И ДИПЛОМАТИИ

avazbek005m@gmail.com

UZAKBAEVA NAUBAXAR BAXADIR KIZI

ПРЕПОДАВАТЕЛЬ УНИВЕРСИТЕТА МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ДИПЛОМАТИИ

naubaharuzakbaeva@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется антикоррупционная практика и достигнутые результаты в таких развитых странах, как Дания и Сингапур, а также рассматривается вопрос их имплементации в узбекское законодательство. Примечательной ситуацией является то, что эти страны достигли экономического, социального и культурного прогресса в различных областях за счет преодоления коррупции. Вывод заключается в том, что коррупция является серьезным препятствием на пути развития, и только преодолев ее, можно проложить путь к крупным реформам.

Ключевые слова: коррупция, международные организации, имплементация, неправительственные организации, взяточничество, вакцина честности, открытость, прозрачность

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN COMBATING CORRUPTION: IMPROVING NATIONAL LEGISLATION BASED ON THE MODELS OF DENMARK AND

SINGAPORE
AVAZBEK NAZIRBEKOVICH MAVLONOV
**STUDENT OF THE FACULTY OF INTERNATIONAL LAW AT
THE UNIVERSITY OF WORLD ECONOMY AND DIPLOMACY**
avazbek005m@gmail.com
UZAKBAEVA NAUBAKHAR BAKHADIR KIZI
LECTURER AT THE UNIVERSITY OF WORLD ECONOMY AND DIPLOMACY
naubaharuzakbaeva@gmail.com
ABSTRACT

This article analyzes anti-corruption practices and results achieved in such developed countries as Denmark and Singapore, and also considers the issue of their implementation in Uzbek legislation. The remarkable situation is that these countries have achieved economic, social and cultural progress in various fields simply by overcoming corruption. The conclusion is that corruption is a serious obstacle to development, and only by overcoming it can we pave the way for major reforms.

Keywords: *corruption, international organizations, implementation, non-governmental organizations, bribery, honesty vaccine, openness, transparency*

KIRISH

«Korrupsiya» soʻzi lotincha «*corrumpere*» soʻzidan olingan boʻlib, «buzmoq», «parchalamoq», «sotib olmoq» yoki «yoʻldan urmoq» degan maʼnolarni anglatadi. Bu atama mansabdor shaxslarning oʻz vakolatlarini shaxsiy manfaatlar yoʻlida gʻayriqonuniy ravishda ishlatishi, pora evaziga sotilishi va jamiyat asoslarini yemirishi tushuniladi. Korrupsiya eng koʻp tilga olinayotgan va xaligacha yechimini topmagan dolzarb mavzulardan biri boʻlib davlatning turli sohalarda taraqqiy etishiga oʻz taʼsirini oʻtkazib kelmoqda. Oʻz oldida turgan bu kabi vazifani bajarish maqsadida dunyo davlatlari turli xil strategik islohotlarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, korrupsiyaviy holatni oʻzgarib borayotganligini statistik faktlar bilan yoritib borishda bir qancha xalqaro tashkilotlar faoliyat yuritmoqda va shu kabi nodavlat tashkilotlardan biri boʻlgan Transparency International¹ 1995-yildan boshlab hukumatlarda sodir boʻlib kelayotgan korrupsiyaviy holatlarni qayt etib kelmoqda. Soʻnggi 2024-yil tahliliga koʻra 180 davlat ichida 90 ball bilan yuqori natija bilan yetakchilik qilayotgan Daniya qirolligini taʼkidlashimiz lozim, keyingi oʻrinlarda esa 88 ball natija koʻrsatgan Finlyandiya Respublikasi va 84 ball bilan cheklangan Singapur Respublikalari egallab turibdi. Oʻzbekiston esa bu jadvalda 32 ball past koʻrsatkich bilan 121-oʻrinni band etgan². Bu esa huquqiy sohani yanada takomillashtirish kerak ekanligining yaqqol isbotidir.

Ushbu tadqiqotning obyekti sifatida Daniya va Singapur kabi korrupsiya darajasi past mamlakatlarning huquqiy va institutsional mexanizmlari tanlab olindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ushbu davlatlar tajribasidagi samarali elementlarni aniqlash va ularni Oʻzbekistonning milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

¹ Transparency International official website. [Electronic resource]. URL: <https://www.transparency.org/en/about>

² Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023 (released in 2024). [Electronic resource]. URL: <https://www.transparency.org/en/cpi/2023>

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va statistik ma'lumotlarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, Transparency International tashkilotining 1995-yildan 2024-yilgacha bo'lgan yillik hisobotlari hamda Daniya va Singapur korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari tahlil qilindi.

XALQARO TAJRIBA TAHLILI

Reytingda birinchi o'rinni egallab turgan Daniya tajribasi haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, American Economic Journal³ tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, Daniya davlat xizmatiga boyish imkoniyati emas, balki jamiyatga foydali bo'lish istagi motivatsiyasi bo'lgan shaxslarni tanlash orqali ko'p yillar davomida amaldorlar korrupsiyasining past darajasini saqlab kelmoqda. Kopenhagen universiteti tadqiqotchilarining tajribasida huquq, iqtisod va siyosatshunoslik bo'yicha tahsil olgan 862 nafar talaba ishtirok etdi⁴, ma'lumot o'rnida ta'kidlab o'tish lozimki, bu yoki shunga yaqin sohalarda Daniyadagi davlat xizmatchilarining qariyb 60 foizi ta'lim olgan. Olimlar talabalarning shaxsiy fazilatlarini, ya'ni ularning halolligi yoki yolg'onchiligi, davlat yoki xususiy sektorda ishlamoqchiligi, shuningdek, ularning boshqa odamlarga foyda keltirish yoki yuqori maosh olish istagi kabi fazilatlarini bo'yicha taqqosladilar. Ma'lum bo'lishicha, halollikka ehtimoli yuqori shaxslar, davlatga ishlashga ko'proq qiziqish bildirishgan, garchi bunday ish uchun kamroq haq to'lansa ham. Kamroq halol bo'lganlar kelajakdagi kasbni tanlashda birinchi navbatda yuqori maoshga e'tibor qaratdilar va xususiy sektorda ishlashni afzal ko'rdilar.

Biroq, bu korrupsiya darajasini pasaytirmoqchi bo'lgan mamlakatlar shunchaki amaldorlarning maoshini kamaytirishi kerak degani emas, baribir davlat boshqaruvidagi yuqori maosh amaldorlarni o'z o'rnini ushlab turishga majbur qiladi, demak, suiiste'molchiliklarni to'xtatadi, deb hisoblaydi Kopenhagen universiteti tadqiqotchilari. Bundan tashqari, agar u mehnat shartnomasi bilan birga xodimga pora olmaslik va bermaslik majburiyatini yuklovchi hujjat - korrupsiyaga qarshi kelishuvni imzolamasa, hech bir kompaniyaga qabul qilinmaydi. Hatto korrupsiyaga qarshi kelishuvni buzishga urinish uchun ham ishdan bo'shatish xavfi mavjud.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun 2002-yilda qabul qilingan bo'lib⁵, unga ko'ra Daniya hukumati vakillari har yili o'z daromadlari va ixtiyoridagi mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaga e'lon qilishlari shart. Qonunchilikka ko'ra, davlat xizmatchilariga mamlakat ichida begona kontragentlarni lobbi qilishni istisno qilish maqsadida xorijiy kompaniyalarning aksiyalariga ega bo'lish taqiqlanadi. Bundan tashqari, Daniya qonunchiligiga ko'ra, Daniya parlamenti – Folketing amaldorlar faoliyatini nazorat qiluvchi asosiy organ hisoblanadi. Masalan, Daniya parlamentining har qanday a'zosi vazirlar faoliyati to'g'risida ma'lumot olish huquqiga ega. Bu parlament yig'ilishlarida vazirlar parlament a'zolarining

³ Hanna R., Wang S.-Y. Dishonesty and Selection into Public Service // American Economic Journal: Economic Policy. — 2017. — Vol. 9, No. 3. — P. 262–290.

⁴ Barfort S., Harmon N. A., Hjorth F., Olsen A. L. Dishonesty and Selection into Public Service: Evidence from Danish Students // University of Copenhagen. — 2019. — P. 10-35.

⁵ Act on Transparency in Administration (Denmark), No. 572 of 19 December 2002. Retsinformation.dk. [Electronic resource]. URL: <https://www.retsinformation.dk>

korrupsiyaga aloqadorlikda gumon qilingan so'rovlariga javoban hisobot berishlari orqali amalga oshiriladi. Daniya qonunchiligida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilovchi 20 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat amal qiladi. Deyarli har yili Daniya korrupsiya uchun javobgarlikni kuchaytiradi. Masalan, o'tgan yili Daniya parlamenti davlat sektorida poraxo'rlik uchun jinoiy jazoni ikki baravar - uch yildan olti yilgacha, xususiy sektorda esa bir yildan to'rt yilgacha oshirish to'g'risidagi normani qabul qildi. Daniyada korrupsiyaning oldini olish tamoyili mavjud bo'lib, unga ko'ra, hech bo'lmaganda korrupsiyada gumon qilingan odam darhol o'z faoliyatiga nuqta qo'yishi mumkin. Amalda amaldorlar uchun "aybdorlik prezumpsiyasi prinsipi" amal qiladi, ya'ni hayot tarzi va rasmiy daromadlarning nomuvofiqligiga shubha tug'ilganda, korrupsiya sxemalariga aloqador emasligini isbotlashga tayyor bo'lish kerak.

Singapurda ham korrupsiyaga qattiq choralar ko'rib kelinmoqda, masalan, 1989-yilda jarima miqdori 100 ming Singapur dollarigacha ko'tarildi⁶. Noqonuniy boylik orttirishda ushlangan shaxs sud tomonidan belgilangan boshqa jazo choralarga qo'shimcha ravishda olingan pora miqdorida jarima to'lashi kerak edi. Byuroning vakolatlari kengaytirildi, bu esa unga yangi hayot bag'ishladi: Byuro xodimlariga gumonlanuvchilarni hibsga olish va tintuv o'tkazish, har qanday bank hisobvarag'i, qimmatli qog'ozlar va Korrupsiyaga qarshi kurashish⁷ to'g'risidagi qonunda belgilangan qoidalarni buzganlikda gumon qilingan har qanday shaxsning xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish, xuddi shu shartlarda har qanday mansabdor shaxsning bank hisobvaraqlariga, zarur hollarda esa uning rafiqasi, farzandlari va ishonchli vakillariga kirish huquqi berildi. Hujjatning samaradorligini saqlab qolish uchun "Xalq harakati"⁸ partiyasi har qanday zarurat tug'ilganda hujjatga tuzatishlar kiritdi. 1963-yilda Qonunga kiritilgan navbatdagi tuzatish guvohlarni Byuro xodimlariga ko'rsatma berish majburiyatini yukladi va tergov samaradorligi sezilarli darajada oshdi⁹. 1966 yilgi tuzatishlar Qonunning ichki tizimini mustahkamladi. Pora aslida olinmagan bo'lsa ham, shaxs aybdor deb topilishi mumkinligi ta'kidlangan – sovg'ani qabul qilish niyati ayblov uchun yetarli asos sifatida baholangan. 1981-yilda qabul qilingan o'zgartirishlarga ko'ra, mahkumlarga sud tomonidan tayinlangan jarimalardan tashqari, korrupsiya yo'li bilan olingan barcha pullarni davlat foydasiga to'lash majburiyati yuklatildi. Bunday qilolmaganlarga og'irroq jazolar berilardi. 1986-yil 14-dekabrda Milliy rivojlanish vaziri Te Cheng Van 16 soatlik so'roqdan so'ng o'z joniga qasd qildi. So'roqqa vazirga nisbatan uning qurilish pudratchisi tomonidan qo'yilgan ikkita korrupsiyaviy ayblov sabab bo'lgan. Vazir 1981 va 1982-yillarda ikki quruvchidan umumiy qiymati 1 million Singapur dollarigacha bo'lgan ikkita pora olganlikda

⁶ Corruption (Confiscation of Benefits) Act 1989, Statutes of the Republic of Singapore. [Electronic resource]. URL: <https://sso.agc.gov.sg/>

⁷ Prevention of Corruption Act 1960 (2020 Revised Edition), Section 18: "Special powers of investigation". Statutes of the Republic of Singapore. [Electronic resource]. URL: <https://sso.agc.gov.sg/Act/PCA1960>

⁸ Quah, Jon S.T. "Curbing Corruption in Singapore: The Importance of Political Will" // Evidence-based Anticorruption Policy. — 2017. — P. 145-152. (*Yoki muqobil manba: Mauzy D. K., Milne R. S. "Singapore Politics under the People's Action Party". — Routledge, 2002. — P. 48-52.*)

⁹ Prevention of Corruption (Amendment) Act, 1963. Statutes of the Republic of Singapore. [Electronic resource]. URL: <https://sso.agc.gov.sg/>

ayblangan. Qonun doirasida, ayblanuvchi vafot etsa ham, sud uning mulkini davlat foydasiga olib qo'yishni talab qilgan.

Hukumat 1980-yillarda, barqaror iqtisodiy o'sishga erishilgandan keyingina amaldorlarning ish haqini oshirish va ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali korrupsiyani kamaytirishga erishdi. 1972-yil mart oyidan boshlab davlat sektorining daromadlari o'sa boshladi: xizmatchilar tijorat firmalari menejerlarining bonuslari bilan taqqoslanadigan yillik mukofot olishdi. Bu rag'batlantirishning ma'nosi korrupsiyaga qarshi kurashish emas, balki amaldorlarning ish sharoitlarini xususiy sektor xodimlariga nisbatan yaxshilash edi. 1985-yil mart oyida Singapur Bosh Vaziri Li Kuan Yu hukumatning korrupsiyaga qarshi kurashda davlat amaldorlarining maoshini oshirish kerakligini tasdiqladi¹⁰ - ularni ishga halol va shaffof yondashuvni ta'minlash uchun yuqori darajada haq to'lanshi lozim ekanligini aytib o'tdi. Agar maosh miqdori yetarli bo'lmasa, amaldorlar o'z mavqeidan foydalanish vasvasasiga tushishga majbur bo'ladi. Li Kuan Yuning ta'kidlashicha, Singapurga mamlakatning eng qimmatli aktivlarini himoya qilish uchun korrupsiyadan xoli ma'muriyat va halol siyosiy boshqaruv zarur. Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng yaxshi usuli - "bozor bilan hamohang harakat qilish," odatiy ikkiyuzlamachilik va korrupsiyani keltirib chiqaradigan ikki tomonlama standartlar o'rniga halol, ochiq va barqaror tizim yaratishdir. Bu davlat qabul qilgan eng samarali yo'llardan biri, o'z manfaati yo'lida olgan pul miqdorini davlat hisobiga o'tkazishi va bundan tashqari, huddi shu miqdorda qo'shimcha jarima to'lashi, bu eng asosiysi katta loyihalarga korrupsiya aralashishini oldini oladi.

MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Daniya tajribasida korrupsiyaga qarshi kurashning asosi— aybdorlik prezumpsiyasi va amaldorlarni axloqiy tanlov asosida saralash hisoblanadi. Singapur misolida esa, qat'iy jazo choralari 100 ming dollargacha jarima va amaldorlar maoshining xususiy sektor bilan tenglashtirilishi korrupsiyani sezilarli darajada jilovlagan.

Daniyada qabul qilingan islohotlarni O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilish lozim bo'lgan asosiy qoidalaridan biri amaldorlarning yil davomida davlat tomonida olgan maoshi va o'z mulki haqida hisobot berishi bo'lib, bu birinchi o'rinda shaffoflik prinsipini, ya'ni, davlat budjetidan noqonuniy yo'llar bilan topilgan mulkni yil sarhisobida aniqlashga ko'mak beradi va ikkinchi o'rinda hukumat tomonidan ajratilgan sarmoyani to'laqonli bir sohaga konsentratsiya qilishga yordam beradi.

Jadal sur'atlarda rivojlanib kelayotgan O'zbekiston 2018-yilda 158-o'rinda edi, 2019-yilda esa 153-o'ringa ko'tarildi, so'nggi yillarda bu natija yanada yaxshilanib 2021-yilda 140-o'rinni egalladi va 2024-yil holatiga ko'ra 121-o'rinni band etib turibdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbari Akmal Burxonov O'zbekiston reytingdagi o'rnini yaxshilaganini, ammo natija bundan ham yaxshiroq bo'lishi mumkinligini ta'kidladi. "Bunday o'sish qayd etilayotgani, albatta, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida olib borilayotgan ishlarning ijobiy natijasidir. Shu bilan birga, ushbu reytingdagi o'rnimizni yaxshilash va umuman jamiyatda korrupsiyani yo'q qilish uchun lobbichilik, monopoliya va manfaatlar to'qnashuvi, tanish-bilishchilik, noqonuniy boyluk orttirish, hokimiyatni suiiste'mol qilish kabi illatlarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni jadallashtirishimiz kerak," - dedi u.

¹⁰ Lee Kuan Yew. From Third World to First: The Singapore Story: 1965-2000. — HarperCollins, 2000. — P. 157-165.

Xususan, Prezident tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi¹¹, O'zbekistondagi yangi islohotlarning asosiy hujjati sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishida mamlakatni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlarini belgilab beruvchi Harakatlar strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashish sifat va miqdor jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi mahsulidir. Davlatimiz rahbarining jamiyatni "halollik vaksinasi" bilan emlash zarurligi haqidagi fikri bu boradagi ishlarning tamal toshidir, shuningdek, 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Korrupsiya o'zining turli ko'rinishlarida mamlakat taraqqiyotiga to'siq bo'lmoqda. Bu illatga barham bermas ekanmiz, haqiqiy qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yarata olmaymiz, jamiyatimizning hech bir sohasi rivojlanmaydi"-dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari asosida davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi, unga ko'ra, barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari tomonidan ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlanadi. Bundan tashqari, byudjet xarajatlarini tartibga solish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, byudjet qonunchiligini buzish holatlari to'g'risida xabardor qilish va byudjet jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish tartib-taomillarini tashkil etish maqsadida "Openbudget" - "Ochiq byudjet" portali ishga tushirildi. Albatta, amalga oshirilgan ishlar ko'lamini tahsinga loyiq, ammo hali o'z yechimini kutayotgan masalalar ham bor.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 - yilning 6 oyi davomida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya bilan bog'liq 1676 ta jinoyat ishi tergov qilinib, sudlarga yuborilgan. Sud muhokamasi natijalariga ko'ra, korrupsiyaga oid jinoyat ishlari bo'yicha 592,5 mlrd. so'm miqdorida moddiy zarar yetkazilgani, shundan 170,8 mlrd. so'mi undirilgani, 421,7 mlrd. so'mi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilishi belgilandi¹². Bundan tashqari 2020-yil 29-iyunda farmoni qabul qilinib,

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 yildagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — 2017 y., 6-son, 70-modda. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/3107036>

¹² O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. 2021-yilning birinchi yarim yilligida korrupsiyaga qarshi kurashish holati to'g'risidagi tahliliy ma'lumot. [Elektron resurs]. URL: <https://anticorruption.uz>

mazkur farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi¹³. Unga ko'ra, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg'alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg'alar, vazirlikka o'tkaziladigan tartib joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida izchil va tizimli davlat siyosatini amalga oshirmoqda, lekin shu bilan birgalikda rivojlangan davlatlar tajribasidan andoza olish ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijasida korrupsiya nafaqat iqtisodiy muammo, balki jamiyatning barcha sohalarini rivojlanishiga to'siq bo'luvchi fundamental omil ekanligi tasdiqlandi. Daniya va Singapur tajribasini tahlil qilish asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kadrlar siyosatini isloh qilish: Daniya tajribasi asosida davlat xizmatiga kadrlarni tanlashda nafaqat professional bilim, balki "halollik vaksinasi" tamoyili asosida ularning axloqiy fazilatlarini tekshirish tizimini kuchaytirish lozim.

2. Moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik: Daniyadagi kabi davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulki haqida har yili jamoatchilikka ochiq hisobot berish tartibini O'zbekistonda ham to'laqonli implementatsiya qilish korrupsion holatlarni erta aniqlash imkonini beradi.

3. Jazo choralari optimallashtirish: Singapur misolida ko'ringanidek, korrupsion jinoyatlar uchun iqtisodiy sanksiyalarni (jarimalarni) bir necha barobar oshirish va noqonuniy orttirilgan mulkni ayblanuvchining vafotidan keyin ham musodara qilish mexanizmlari profilaktik samara berishi mumkin.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020 yildagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4875784>

4. Raqamli nazoratni kengaytirish: «Openbudget» va shunga o'xshash ochiqlik platformalarini yanada rivojlantirish orqali davlat byudjeti ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajribadagi «aybdorlik prezumpsiyasi» va yuqori ijtimoiy kafolatlar tizimini milliy qonunchilikka moslashtirish O'zbekistonning Transparency International reytingidagi o'rnini yanada yaxshilash va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son. – <https://lex.uz/docs/3088008>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6013-son Farmoni. «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 29.06.2020 y. – <https://lex.uz/docs/4875784>
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi. (2003).
5. Hanna, R., & Wang, S.-Y. (2017). Davlat xizmatida halollik va kadrlarni saralash tahlili. American Economic Journal: Economic Policy.
6. Li Kuan Yu. (2000). Uchinchi dunyodan birinchisiga: Singapur hikoyasi (1965-2000). (Singapur islohotlari bo'yicha asosiy adabiyot).
7. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Rasmiy veb-sayti – <https://anticorruption.uz/uz>
8. «Ochiq byudjet» (Open Budget) portali. – <https://openbudget.uz>
9. «Taraqqiyot strategiyasi» markazi. Rasmiy portali – <https://strategy.uz/index.php>
10. Kun.uz axborot nashri. (2024). «O'zbekistonda korrupsiya uchun sudlanganlar soni 55 foizga oshdi». – <https://kun.uz/uz/news/2024/10/04/v-uzbekistane-chislo-osujdennyx-za-korrupsiyu-vyroslo-na-55>
11. Dzen.ru tahliliy platformasi. (2023). «Daniyaning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi». – <https://dzen.ru/a/Y95v0wON8Vj9DSHS>